

**INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI KOMPARATIV FRAZELOGIK IBORALARINING
PARADIGMATIK MUNOSABATLARI**

Saparov Salamat Perdebaevich – *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Bayjanov Saparniyaz Yagmirbay uli – *talaba*

ssaparov202581@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ПАРАДИГМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ КОМПАРАТИВНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ
В АНГЛИЙСКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ**

Сапаров Саламат Пердебаевич – *доктор философии по филологическим наукам*

Байжанов Сапарнияз Ягмирбаевич – *студент*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**PARADIGMATIC RELATIONS OF COMPARATIVE PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH
AND KARAKALPAK LANGUAGES**

Saparov Salamat Perdebaevich – *Doctor of Philosophy in Philological Sciences*

Bayjanov Saparniyaz Yagmirbaevich – *student*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch soʻzlar: komparativ frazeologizmlar, adyektiv iboralar, polisemiya, sinonimiya, paradigmatic munosabatlar, ingliz tili, qoraqalpoq tili.

Rezyume. Maqolada ingliz va qoraqalpoq tillaridagi komparativ adyektiv frazeologizmlarning paradigmatic munosabatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda frazeologik birliklarning polisemiyasi, sinonimik qatorlarining shakllanishi, struktur-semantik xususiyatlari va intensivatsiya vazifasi yoritilgan. Tahlil natijalari ikki til frazeologik tizimida umumiy tipologik belgilar mavjudligini koʻrsatib, komparativ iboralarining milliy-madaniy xususiyatlari va obrazlilik darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Ключевые слова: компаративные фразеологизмы, адъективные выражения, полисемия, синонимия, парадигматические отношения, английский язык, каракалпакский язык.

Резюме. В данной статье проводится сравнительный анализ парадигматических отношений компаративных адъективных фразеологизмов в английском и каракалпакском языках. Исследование охватывает вопросы полисемии, формирования синонимических рядов, структурно-семантических особенностей и функции интенсификации данных единиц. Полученные результаты свидетельствуют о наличии общих типологических характеристик во фразеологических системах двух языков и позволяют выявить национально-культурную специфику образности компаративных выражений.

Key words: comparative phraseological units, adjectival idioms, polysemy, synonymy, paradigmatic relations, English, Karakalpak.

Summary. This article presents a comparative analysis of the paradigmatic relationships of comparative adjectival phraseological units in English and Karakalpak. The study examines their semantic polysemy, the formation of synonymic series, structural-semantic characteristics, and intensifying functions. The findings reveal significant typological similarities between the phraseological systems of both languages and highlight the national-cultural specificity and imagery of comparative expressions.

Kirish. Adyektiv iboralar asosidagi obrazlar ingliz va qoraqalpoq tillarida real va noreal olam obyektlariga asoslangan.

Chogʻishtirma oʻrganish nuqtayi nazaridan adyektiv iboralarining koʻpmaʼnoliligi masalasi hali ham tilshunoslarning diqqat markazida boʻlib qolmoqda. A.N.Lyubova taʼkidlaganidek, “soʻnggi yigirma yil davomida frazeologiya tizimida paradigmatic munosabatlarni oʻrganishga bagʻishlangan ishlarni sanasangiz, oʻntaga ham yetmaydi” [6].

Ingliz tilida feʼlli iboralar sinonimiyasi, rus va xitoy frazeologik birliklar sinonimiyasi, ukrain frazeologiyasida variativlik va sinonimiyani farqlashga bagʻishlangan ishlar eʼlon qilingan, rus tili frazeologiyasida antonim-sinonimik paradigmalar tahlil qilingan, fransuz va rus tillarida frazeologik omonimiya muammosi koʻrib chiqilgan, ingliz va tatar tillarida frazeologik antonimlarning qiyosiy tahlili bajarilgan [7].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Frazeologiyada polisemiya muammosi ushbu jihatdan yagona boʻlib turgan Xolxoyevaning nomzodlik dissertatsiyasida koʻrib

chiqilgan boʻlib, unda yangi ingliz davri tilida polisemiya va feʼlli frazeologik birliklarning rivojlanish muammosi oʻrganilgan, muallif “frazeologik polisemiya metaforik va metonimik koʻchish asosida yuzaga keladigan izchil va parallel qayta idrok asosida shakllanadi” degan xulosaga keladi. Adyektiv frazeologiyada polisemiya masalasiga keladigan boʻlsak, ular hozirgacha batafsil oʻrganilmagan [8].

Anʼanaviy tilshunoslikda komparativ iboralar odatda monosemantik, yaʼni bir maʼnoga ega til belgilari hisoblanadi [4]. Shu bilan birga, ikkita frazeosemantik varianti bor barqaror oʻxshatishlarning mavjudligi ehtimoli qayd etilgan boʻlib, A.N.Lyubova taʼkidlaganidek, polisemantik KAI (komparativ adyektiv iboralar) juda kam uchraydi.

Turkologiyada bu borada V.G.Ayollo, X.M.Saykiev, Sh.Rahmatullaev qisman tadqiqot olib borishgan. Ammo tilshunoslarning hammasi ham iboralarining koʻpmaʼnoliligini tan olmaydi. Ular iboralar semantikasining oʻziga xosligi maʼno farqlanishiga yoʻl qoʻymaydi deb taʼkidlashadi. Ayni shu fikrni A.I.Efimov,

V.F.Rudov, N.A.Kirsanovalar ham qo'llab-quvvatlashadi [1]. O'zbek tilida frazeologik polisemiyasini har tomonlama o'rgangan Sh.Rahmatullaev faktik materiallarni tahlil qilish asosida polisemiya alohida so'zlarga xos bo'lgan darajada iboralar ham xos, degan xulosaga keladi, ko'p ma'noli iboralar ikkitadan ettitagacha ma'noga ega bo'lishi mumkin, ularning 80% ikkita ma'noga ega. Qoraqalpoq tilida iboralar polisemiyasi masalasi deyarli o'rganilmagan qoraqalpoqcha-ruscha lug'atda juda kamdan-kam hollarda u yoki iboralarining barcha ma'nolari qayd etilgan.

Tahlil va natijalar. Shu bilan birga, ingliz va qoraqalpoq tillari adyektiv iboralar ko'pma'noliligini qiyosiy o'rganish iboralarini terminlar, maqollar, aforizmlardan farqlash imkonini beradi. Quyida ingliz va qoraqalpoq tillaridagi bir qator adyektiv iboralarining polisemiya darajasi taqqoslangan. Misollar:

Ingliz tilida:

As cold as ice – 1) Muzday sovuq;

2) (odam haqida) beparvo, befarq, sovuqqon, bee'tibor.

Muzday suvıq – 1) Muzday sovuq;

2) (odam haqida) beparvo, sovuq, hissiz, muomalasi yo'q.

As clear as a day – 1) Juda yorqin, tiniq;

2) Tushunarli, ayon.

Qoraqalpoq tilida:

Kündizgidey jarıq – 1) Juda yoruq, yorqin;

2) (odam haqida) yoqimtoy, chehrasi ochiq.

3) Tushunarli, ayon.

KAI polisemiyasini tahlil qilish masalasiga keyingi o'rinlarda batafsil to'xtalamiz. Hozircha paradigmaning ajralmas qismi sifatida ingliz va qoraqalpoq tillari KAI sinonimiyasi o'rganib chiqamiz.

Sinonimiya – bu umummilliy tilda shakllangan va uning tarixiy rivojlanishining ma'lum bir davrida faol bo'lgan alohida lisoniy birliklarning ma'nolari o'rtasidagi muayyan munosabatlar tizimi. Til birliklari umumiy ma'no asosida muayyan sinonimik guruhlar [6] yoki sinonimik qatorlarga birlashadi. Sinonimiyaning asosiy sharti til birliklarining mazmun tarkibida ma'noni aniqlash uchun zarur bo'lgan kamida bitta umumiy semaning mavjudligidir [9]. Ko'pgina tilshunoslarning fikriga ko'ra, iboralarining sinonimiyasi quyidagi umumiy xususiyatlarga ega: 1) leksik ma'no tengligi; 2) iboralar tarkibida bitta sinonimik qatorga mansub, genetik jihatdan umumiy so'zdan kelib chiqqan bir xil komponentlarning yo'qligi; 3) bir xil leksik va grammatik xususiyatlarning mavjudligi. Bir qator tilshunoslarning fikriga ko'ra, sruktur farqlar yoki struktur o'xshashliklar, shuningdek, tarkibiy qismlarning miqdoriy tarkibidagi farqlar frazeologik sinonimlarning majburiy belgilari emas [3].

Qoraqalpoq tilshunosligida bu borada qiyosiy tadqiqotlar endigina shakllanmoqda. G.Aynazarova, E.Berdimuratov, T.Jumamuratov, J.Eshbaev, Sh.Qudyarova, S.Naurizbaeva va boshqa tadqiqotchilar ushbu mavzuda o'z so'zini ayta oldilar, deyishimiz mumkin. Ular tomonidan yaratilgan ikki tilli frazeologik lug'atlar ma'lum darajada ko'rib chiqilayotgan masalani qiyosiy tahlil qilish muammosini aks ettiradi. Ta'kidlash kerakki, Sh. Qudyarovning "Qoraqalpoq ham qazaq tilleridagi so'zlarining leksika-semantikliklari" ("Qoraqalpoq va qozoq tillaridagi so'zlarning leksik-semantik o'ziga xosliklari (ayrim so'z va iboralar misolida)") [5] nomli monografiyasida qiyosiy aspektida

qoraqalpoq va qozoq tillari misolida iboralarining sistem tahlili keltirilgan. Ishning tadqiqot qismi ushbu ikki tildagi iboralarini taqqoslash va shu asosda ularning leksik va semantik xususiyatlarini asoslashga qaratilgan. Sinonimik munosabatlar masalasiga J.Eshbaevning "Qoraqalpoq tilining frazeologik lug'ati" muqaddimasida qisman to'xtalib o'tilgan [2]. Xususan, ushbu lug'atda frazeologik sinonimlar qoraqalpoq tili sinonimik munosabatlarining tipologik xususiyatlariga ko'ra ikki turga bo'linadi:

a) iboralar va alohida so'zlar o'rtasida;

b) iboralarining o'zlari o'rtasida.

Mazkur tadqiqotda ingliz va qoraqalpoq tillaridagi adyektiv iboralarini sinonimik qatorlaridagi ayrim xususiyat va umumiyliklarni aniqlash va tavsiflashga harakat qilindi.

Qiyoslanayotgan tillarda aksariyat adyektiv frazeologizmlar ingliz tilidagi *as+Adj+as+N* tuzilishli va qoraqalpoq tilidagi *N.+day+Adj* tuzilishli iboralar qiyoslanib, frazeologik birliklar komponentlari o'zaro mos kelishi aniqlandi. Ingliz tilida qiyoslash vositasi *as* ko'makchisi, qoraqalpoq tilida esa *-day, -dey, -tay, -tey* qo'shimchalari ekanligi hamda *misli, kibi, ya'ni* kabi ko'makchilar yordamida ham ifodalanishi asoslandi.

I. 1) *as close as a brother* – misli bir t^{an}-bir jan, bir anadan tuvilg^{anday}, bir uyadan ushq^{anday}, egiz qozid^{ay};

2) *hand and (in) glove with* – o'z-ara qal^m qudalard^{ay}, aras^{man} qil o'tpeytug^m, j^{uz}ikke qas qondirg^{anday}, qol urisq^{an}, shappat urisq^{an};

3) *as thick as thieves* (mud, fleas) – awzⁱ bir(dey), m-jmⁱ birdey, awiz jalasq^{an}, tili bir.

II. 1) *as clever as sin* – shaytandⁱ azg^{irg}anday, shaytandⁱ aldaytu^{gm}, heshkimnen aqil soramaytu^{gm};

2) *as clever as a monkey* – misli maymil kibi, otirigi irastay, aldina adam salmaytu^{gm};

3) *as agile as a monkey (cat)* – arqasⁱ jerge tiymes;

4) *as artful as a barrel of monkey* – suw juqpas, maymilday epshil, t^{ul}kidey xiyleker, padali maymillarday, digirmannⁿ tasman tiri shigatu^{gm};

5) *as the devil* – misli shaytan kibi, ildim-jildim, iras-otirikli, mamelek aylandirg^{anday};

6) *old fox* – xiyleker t^{ul}kidey, na^giz t^{ul}ki kibi, sum t^{ul}kidey.

III. 1) *as fair as rose (lily)* – misli g^{ul} kibi, suw perisi ya'ni, x^{ur} qizlarmday, ashilgan g^{ul}dey;

2) *as fair as angel* – na^giz periyzat, periyzattay sulw, ay j^{uz}li arw, ay dese awzⁱ k^{un} dese k^ozi bar;

3) *as beautiful as a princess* –x^{ur} qizmday dolangan, g^{ul} shrayli, g^{ul} j^{uz}li sanem.

Yuqoridagi sinonimik iboralar (adyektiv iboralar)ning alohida shakllanganligiga asoslanib, tahlil qilinayotgan tillarda adyektiv iboralarining keng tarqalganligini taxmin qilish mumkin. Taniqli ingliz va qoraqalpoq yozuvchilarining badiiy asarlaridan olingan quyidagi misollarga e'tibor qaratish kerak:

We are as close as brothers. A great deal closer than most brothers (Braine J. Room at the Top). – Biz aka-ukalarday yaqinmiz. Aksariyat aka-ukalardan ko'ra yaqinroqmiz.

Respublikanin barlıq kushi bir t^{an} - bir jan bolıp, sol basıp kiyatırğan suwdın aldında, sol jerde quşaydı (Paxratdinov A. Otken asir awlatlari).

There had been new evidence that Pipart was as thick as mud with Wakem (G.Eliot "The Mill on the Floss"). – По словам (подтверждению) очевидцев, Пипарт и Вейком были закадычными друзьями.

Ol ekewi arasman qıl ótpes doslarday, egiz qozıday birge baradı, birge keledi (S. Jumaǵulov “Qońıslar”).

...Sippens and Van Sickle... departed together. In ten minutes they were **hand in glove**... (Dreiser Theodor “The Titan”). – Сиппенс и Ван Сикл ... вышли вместе. Через десять минут **стали уже приятелями**.

...özlerimizdey, yel azamatları, yel ağalarınıñ **awzı bir**, sıylasıqlı bolıp, xalıq ushın dep japırıla islesse, ele de hesh gáp bolmas-aw! (K.Matmuratov «Terbenbes»).

Yuqorida keltirilgan misollarda ikkala tildagi bir ma’noli KAI sinonimik qatorlarini taqqosladik. Agar inglizcha misollarda adyektiv iboralar sinonim bo’lsa, ...as close as brothers, ...as thick as mud..., ...hand in glove..., qoraqalpoq tilida ularga quyidagi sinonimik qatorlar muqobil bo’la oladi: *bir tán - bir jan bolıp...*, ...*arasman qıl ótpes...*, ...*egiz qozıday...*, ...*awzı bir...*, - ularning tarkibiy tuzilishi qisman mos keladi. Qoraqalpoq tilidagi ... *bir tán - bir jan...*, ... *arasman qıl ótpes...*, ... *awzı bir...* kabi misollarda gohi -day, ...-tay, ...-tey komparativ qo’shimchalar yoki *misli, kibi* ko’makchilarining tushib qolishini kuzatamiz. Ammo bundan bunday birikmalar o’z qiymatini yo’qotmaydi: ular gapning mazmunidan anglashinadi.

Ingliz tilida adyektiv iboralar qiyosiy darajada ham qo’llanishi mumkin: *We are as close as brother. A great deal closer than most brothers* (J.Braine “Room at the top”). – Bizler *bir anadan tuwǵandaymız. Kópshilik tuwısqanlarǵa qaraǵanda da, anaǵurlım tatıwıraqpız.*

Qoraqalpoq tilida qiyosiy daraja ibora bilan emas, balki sifat bilan ifodalanadi.

Bundan tashqari, ingliz tilida adyektiv iboralarda bog’lovchi sifatida **like** qo’llanadi: *like a bolt from the blue – túyeden postın taslaǵanday, like a weather cock in the wind – jalpıldaǵ, eki júzli.*

Ayrim tadqiqotlarda ushbu tuzilmalar frazeologik intensivlik sifatida qaraladi. Yu.S.Stepanova shunday deb yozadi: «iboralar faqat intensivlikatsiya vazifasini o’taydi», [10] I.I. Turanskiy ularni “kuchaytirish frazeologizmlari” qatoriga qo’shadi, [11] I.I. Ubin *like+N*, *as+Adj+as+N* tuzilishga ega kuchaytirish iboralarlarini umumiy kuchaytirish usullariga kiritadi [12].

Bunday tuzilmalar qoraqalpoq tilida ham uchraydi. Demak, bu KAIning qoraqalpoq tilidagi ham kuchaytirish vazifasini tasdiqlashga asos beradi, xususan quyidagi iboralar tarkibida: *arıslanday aybatlı – as fierce as a lion; súttey jariq – as bright as milk.*

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi komparativ adyektiv iboralar o’rtasidagi paradigmatic munosabatlar ularning semantik tuzilishi, sinonimik qatorlarining shakllanishi, obrazlilik darajasi va funksional imkoniyatlarida yaqqol namoyon bo’ladi. Mazkur qiyosiy tahlil ikki tilning frazeologik tizimlarini chuqurroq anglashga, ularning umumiy va milliy xususiyatlarini aniqlashga zamin yaratadi hamda adyektiv frazeologizmlar bo’yicha keyingi tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo’lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Ефимов А.И. Язык сатиры Салтыкова-Щедрина. – Москва: 1953; Рудов В.Ф. К вопросу о сущности фразеологических выражений. // Ученые записки. вып. 5, 1958; Кирсанова Н.А. О некоторых семантических признаках фразеологических единиц (к вопросу о многозначности и синонимике в сфере фразеологии). – Москва-Ленинград: 1964.
2. Ешбаев Ж. Карақалпақ тилинің қысқаша фразеологиялық сөзлігі. – Нөкіс: «Қарақалпақстан», 1985.
3. Кислицкая С. Структурно-семантические особенности русских фразеологизмов с тюркскими компонентами: автореф. дис. ... канд. филол. наук: – Махачкала, 2005.; Мугидова М.А. Соматические фразеологические единицы кумыкского и русского языка: автореф. дис. ... канд. филол. наук: – Махачкала, 2005.
4. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. 3-е изд., перераб. – Москва: «Высшая школа», Дубна: «Феникс», 1996.
5. Кудьярова Ш.Т. Қарақалпақ хәм қазақ тиллериндегі сөзлердің лекса-семантикалық өзгешеліктері. – Нөкіс: «Қарақалпақстан», 2008.
6. Любова А.Н. Адъективные компаративные фразеологизмы в английском, немецком и норвежском языках: общее и специфическое: дис... канд. филол. наук: – Москва, 2009.
7. Марданова, Г.Б. Сопоставительный анализ фразеологических антонимов в английском и татарском языках: автореф. дис. ... канд. филол. наук: – Казань, 1998.
8. Попова Е.Ю., Любова А.Н. Синонимия английских адъективных компаративизмов как признак системности. Язык, культура, общество: тезисы докладов IV Международной научной конференции. – Москва: РАН, 2007.
9. Постникова С.В. Синонимы в немецком языке и основные приемы их активации. – Москва: «Высшая школа», 1984.
10. Степанова Ю.С. Французская стилистика. – Москва: «Высшая школа», 1965.
11. Туранский И.И. Семантическая категория интенсивности в английском языке. – Москва: «Высшая школа», 1990.
12. Убин И.И. Лексические средства выражения категории интенсивности: Автореф. дис. ... канд. филол. наук: – Москва, 1974.